

# Development of cognitive-creative competence in students of general secondary education

Z.U.Xojiyeva

TDPU v.b.dosent. P.f.H

**Yulduzxon G'afurjanovna Mamadaliyeva**

Nizomiy nomli TDPU. Magistranti.

[m.yulduzxon@gmail.com](mailto:m.yulduzxon@gmail.com)

+998909102802

**Annotation:** The article focuses on the pedagogical basis for the development of cognitive and creative competence in students.

**Key words:** intellectual, intellectual abilities, creative, cognitive-creative, interactive game, creative, modern method.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqida bugungi kunda yoshlar bilan ishlash, jamiyatda ularning shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faolliklarini oshirish masalasi xususida to'xtalib, bu borada "...yoshlar auditoriyasi bilan ish olib borishda interaktiv usullar qo'llanmayotganini qayd etish lozim" ligiga alohida e'tibor berib o'tdi.

Darhaqiqat, jamiyat va fan-texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida ta'lim-tarbiya jarayoni, uning mazmuni, shakl, metod va vositalari, mutaxassislar tayyorlash jarayoniga ta'sirini tahlil etganda, bo'lajak o'qituvchilarda kreativ faoliyatga bo'lgan ehtiyoj quyidagilar bilan belgilanishini aniqladik:

Birinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ta'lim tizimi, metodologiyasi va o'quv jarayoni texnologiyasini tubdan yangilashni talab qiladi. Bunday sharoitda o'qituvchining faoliyati pedagogik yangiliklar yaratish, ilg'or tajribalarni o'zlashtirish va ulardan foydalanish ko'nikmalarini egallashdan iborat. Bu esa, o'z-o'zidan bo'lajak pedagoglarda kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Ikkinchidan, ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish o'qitishning yangi tashkiliy shakllari, texnologiyalarini izlash, ya'ni ta'limga innovatsiyalar kiritishni taqozo qiladi. Ta'lim jarayoniga innovatsiyalar kirishining muhim shartlaridan biri esa, o'qituvchining innovatsion tayyorgarligi, ijodkorligi va kreativ faolligi bilan tavsiflanadi.

Uchinchidan, pedagogik yangilikni o'zlashtirish va uni amaliyatga tatbiq etishga nisbatan bo'lajak o'qituvchilarda faol mayllarni rivojlantirish kabilar tadqiqot muammosining ijtimoiy, pedagogik-psixologik jihatdan dolzarbligini ifodalaydi.

O'quvchilarda kreativlikni rivojlantirish – bo'lajak o'qituvchilar kasbiy-pedagogik mahoratini shakllantirishning assosidir. O'quvchi-yoshlarning kreativliklarini rivojlantirish birinchi navbatda xususiy kognitiv ko'nikmalarga asoslangan, ya'ni ijod, tashabbus, tadqiqotchilik sohasida shaxsiy bilimlarga ega bo'lish, kreativ faolikka intilish bilan ham belgildi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarining ko'pi – bo'lajak o'qituvchilardir. Ular kreativ vazifalarni o'zlashtirish bilan bir qatorda, o'z o'quvchilarida ijodkorlik, tadqiqotchilik, yaratuvchanlikka havas uyg'ota olishlari lozim. Buning uchun bo'lajak o'qituvchilarning kreativlikka oid bilimlari, tushunchalari va qarashlarini tahlil qilib, kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan zaruruslubiy tavsiyalar berish maqsadga muvofiqdir. Ko'rinish turibdiki, o'quvchilarda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishning zarurligi o'zaro faol munosabatlar ta'sirida rivojlanadigan ko'nikmalarni faollashtirish imkonini beradi. Bu esa umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi ta'lim muhiti, o'qitish shart-sharoitlari va metodlarining interfaol xarakter kasb etishini ta'minlashni talab qiladi.

Bugungi kunda o'qituvchining shaxsiyati va faoliyatiga bo'lgan talablar bilan oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajalari orasida sezilarli ziddiyatlar kuzatilmoque.

Shu bilan bir qatorda o'qituvchilar tayyorlashning mavjud tizimi bilan bo'lajak o'qituvchi faoliyatining shaxsiy ijodiy xarakterorasida ham nomutanosibliklar kuzatilmoxda. Pedagogik ta'limga nisbatan texnokreatik hamda ekstensiv yondashuvlardan to'la qutilmaslik natijasida talabalar uzoq vaqtlar mobaynida jamiyat hayoti va xalq madaniyatidan sun'iy tarzda uzoqlashtirildilar. Buning natijasida o'qituvchilar bilan o'quvchilar orasida to'siqlar va bo'shilq vujudga keldi, o'qituvchining ta'lim jarayonidagi yakka hukmronligi qaror topdi. Shu bilan bir qatorda, ular aksariyat hollarda asosan o'quv dasturlari va darsliklarga bog'lanib qoldilar, ularning kreativ faoliyatlarini rivojlantirishga yetarlicha e'tibor qaratilmadi. Bu esa, o'z navbatida, o'qituvchilik kasbining ijtimoiy mavqeい va obro'siga putur yetkazdi. Chunki bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash tizimi jamiyat ehtiyojlari va uning o'tkir muammolaridan uzoqlashgan edi. Shu nuqtai-nazardan, erkin va shaxsga yo'naltirilgan interfaol ta'lim muhitini shakllantirish, bugungi kunda pedagogik tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida baholanmoqda.

Ko'rinib turibdiki, o'quvchilarda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishning zarurligi o'zaro faol munosabatlar ta'sirida rivojlanadigan ko'nikmalarni faollashtirish imkonini beradi. Bu esa ta'lim muassasalaridagi ta'lim muhiti, o'qitish shart-sharoitlari va metodlarining interfaol xarakter kasb etishini ta'minlashni talab qiladi.

Darhaqiqat, ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining pedagogik ta'siri yetakchi omillardan biri ekanligini e'tiborga olinadigan bo'lsa, yangicha kasbiy qiyofadagi, ijodkor o'qituvchi shaxsiga bo'lgan ijtimoiy talab har qachongidan ham dolzarplashadi.

Ma'lumki, insoniyatning tarixiy taraqqiyoti bosqichida shaxs kamoloti, ijodkorligi, shuningdek, o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi, ijodiy qobiliyatlari masalasi o'ziga xos yondashuvlar doirasida talqin etiladi.

Xususan, o'qituvchilik kasbining o'ziga xos xususiyatlari haqidagi fikrlar Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Umar Xayyom ta'limotlarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

O'qituvchi hech qachon o'zi yakka holda emas, balki doimo o'quvchilar bilan hamkorlikda ijod qiladi. Shunday ekan, o'qituvchining ijodkorligi ta'lim oluvchilarning manfaatlariga xizmat qilishi maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq etishning muhim jihatlaridan yana biri bo'lgan tadqiqot muammosi sifatida o'rganilayotgan talabalarda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishning zaruriy sharti ham ana shunday ta'lim muhiti va sharoitini talab etishidadir. Chunki, shaxs qachonki erkinlik va o'ziga nisbatan ishonch muhitini sezgandagina uni o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi, mustaqil harakat qilish istagi, bilish faolligi shakllanadi. Bu esa, shaxsda kreativ qobiliyatlarning rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Har qanday shaxs kasbiy bilimlarning rivojlanishi natijasida muayyan faoliyat tajribasini egallaydi. Shuning uchun ham shaxs o'zining kreativligi bilan kasbiy faoliyat tajribasini yaratishi, boyitishi, to'ldirishi lozim. Bunday tajribalarni talabalar oliy pedagogik ta'lim muassasalarida o'zlashtirib, butun hayoti davomida boyitib boradi. O'qituvchi shaxsi har doim muhim ahamiyatga ega bo'lgan ijodiy faoliyat ko'nikmalarini namoyon eta olishi kerak. Shundagina u o'z kasbiy faoliyati davomida kreativligini namoyon eta oladi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Mirziyoev. Sh.M. 2017 yil 30 iyun Prezidentimizning O'zbekiston «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi «Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir» deb nomlangan nutqi.
2. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. – T.: Sharq NMK, 2004. – 335 b.
3. Djuraev R., Tolipov U. Pedagogik faoliyat, texnologiyalar // Uzluksiz ta'lim j. – T.: 2003. 2-son. – 3-10-b.
4. Сластенин В.А., Подымова Л.С. Педагогика: Инновационная деятельность. М.: ИЧП «Издательство Магистр», 1997. – 224 с.
5. Дьюи Дж. Индивидуализация обучения школьников. -Чикаго.,1991.-19 с.